



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo'rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an'analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na'tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O'zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO'BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O'RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo'jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O'zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o'rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G'allaorol tumani nurobod qishlog'i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO'RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E'zoza MIZAMOVA "Ravshan" dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO'RAQULOVA, O'zbek xalq ertaklarida "Oq" va "Qora" ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo'llangan ba'zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o'ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi "sar sila" marosimi: an'anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

DUNYO LINGVISTIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI DIALEKTAL BIRLIKLARI BAZASINING TUZISH TAJRIBASI

EXPERIENCE IN COMPILING A DATABASE OF AGRICULTURAL DIALECTAL UNITS IN WORLD LINGUISTICS

Marjona O'RALOVA,

Termiz davlat universiteti

Kompyuter lingvistikasi magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/UTPD6321

Annotation. *This thesis presents a comprehensive analysis of the experience of collecting, digitizing, and creating an electronic database of dialectal lexemes and agricultural terminology in global linguistics. The main methodological framework of the study is the integration of dialectology, corpus linguistics, geolinguistics, and modern information technologies. The territorial, semantic, and functional characteristics of agricultural terms are identified, and the scientific and practical significance of preserving them in a digital environment is substantiated. The place of agricultural lexemes in global linguistics and the procedures for their inclusion in electronic databases are also discussed.*

Key words: *dialectology, agricultural lexicon, linguistic database, corpus linguistics, geolinguistics, terminology, digitization, regional dialect.*

Zamonaviy lingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biri – dialektal qatlamni chuqur o'rganish va uni tizimli ravishda hujjatlashtirishdir. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq leksik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati va turmush tarzini aks ettiruvchi muhim til qatlamidir. Shu bois, agrar dialektal birliklarni bazaviy shaklda jamlash masalasi global lingvistik tadqiqotlarda dolzarb yo'nalish sifatida qaralmoqda. Jahon lingvistikasida shevaga oid birliklarni, xususan, qishloq xo'jaligiga oid so'zlarni yig'ish, guruhlarga ajratish va bazaga joylashtirish muammosi dialektologiya, leksikologiya, etnolingvistika hamda zamonaviy korpus lingvistikasi birlashgan o'rinda shakllangan zarur ilmiy yo'nalish desak mubolag'a bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligiga oid leksika xalqning ko'p asrlik xo'jalik ishlari bo'yicha tajribasi, yashash tarzi, madaniyati va ma'naviyatini aks ettiruvchi asosiy til qatlamlaridan biri bo'lgani uchun, u jahon tilshunosligida muhim e'tibor bilan o'rganib kelinmoqda.

An'anaviy Yevropa shevashunosligida nemis [Olkhovska, N., & Skokova, M. 2019:54], fransuz [Dvořáková, M. 2019:34], italyan [Canazza, A. 2023:78], rus [Zvereva, Y. 2025:76] maktablarida agrar leksema so'zlar asosan lingvogeografik usul asosida yig'ilgan [Polishchuk, S. 2025:34]. Dialektal atlaslar tuzishda yerga ishlov berish, ekin turlari va ularning ekilish mavsumi, hosil yig'ish, chorvachilik, sug'orish, dehqonchilikdagi mehnat qurollari bilan bog'liq so'zlar hududiy farqlarni aniqlab keluvchi asosiy ko'rsatkich sifatida qaraladi. Bu jarayonda so'zlarning nafaqat shakli, balki uning tarqalish hududi, fonetik tuzilishi va semantik jihatlari ham ahamiyatga olingan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon lingvistikasida qishloq xo'jaligiga oid leksikani tadqiq etishda kelib chiqish o'rniga qarab ish olib borish yondashuvi kuchaydi. Bu yo'nalishda agrar

leksemalar faqat tilning ma’lum bir birligi sifatida emas, balki xalqning madaniy merosi, urf-odatlar va mentalitetini ko’rsatib beradigan birlik sifatida qarala boshladi. Masalan, ekin nomlari va turlari, dehqonchilik amaliyotiga oid so‘z turkumlari, mavsumiy jarayonlarni bildiruvchi so‘zlar milliy dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilindi. Zamonaviy jahon lingvistikasida esa qishloq xo‘jaligiga oid dialektal birliklar bazasini yaratish korpus lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash va raqamli leksikografiya asosida ishlar olib borilmoqda. Elektron sheva bazalarida har bir so‘z ko‘p qatlamli tavsif asosida joylashtirilmoqda. Bunda quyidagi lingvistik parametrlar asosiy hisoblanadi:

1. Leksemaning fonetik transkripsiyasi va adabiy til normasi;
2. Morfologik tavsifi (so‘z turkumi, yasallish shakli);
3. Semantik tuzilish (so‘zning asosiy va ikkilamchi ma’nolari);
4. Hududiy belgi (aniq hudud, qishloq, tuman, mintaq);
5. Variantlilik (fonetik, leksik va semantik variantlari);
6. Qo‘llanish sohasi (dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, boshqalar).

Bundan tashqari, zamonaviy elektron bazalarda lingvistik ma’lumotlar bilan bir qatorda ekstralingvistik parametrlar ham asosiy o‘rin tutadi. Jumladan, so‘z yozib olingan shaxsning yoshi, jinsi, kasbi, yashash manzili, yozib olingan vaqt, vaziyatning turi kabilar ko‘rsatib o‘tiladi. Bu ma’lumotlar qishloq xo‘jaligi leksikasining sotsiol xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ko‘plab xorijiy loyihalarda dialektal qishloq xo‘jaligi leksikasi elektron multimodal korpuslar ko‘rinishida yaratmoqdalar. Bunday bazalarda leksema: matnli izoh, audio yozuv, video yozuv (mehnat jarayoni), vizual material (asbob, o‘simlik, jarayon rasmi) bilan birgalikda beriladi. Bu esa qishloq xo‘jaligi birliklarini real nutq muhitida, tabiiy kontekstda tadqiq qilish imkonini kengaytiradi. Shuningdek, jahon tajribasida agrar leksikani bazaga joylashtirishda mavzuviy klassifikatsiya asosiy ahamiyat kasb etadi. Leksemalar “ekin turlari”, “yerga ishlov berish”, “mehnat qurollari”, “sug‘orish tizimi”, “chorvachilik”, “hosilni qayta ishlash” kabi mikrosohalarga ajratilib, har bir guruh alohida teglanadi. Bu yondashuv lingvistik tahlil bilan bir qatorda terminologik va etnografik tadqiqotlar uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda dialektal birliklar maxsus elektron ilovalar asosida jamlanmoqda. Bunda lingvistik birlik nafaqat matn, balki audio, video va rasmlar bilan birgalikda ko‘rsatilmoqda. Bu esa agrar leksikasining real nutq muhitidagi qo‘llanishini saqlab qolish va yana tadqiq qilish imkonini kengaytirmoqda. Shunday qilib, jahon lingvistikasida qishloq xo‘jaligiga oid dialektal birliklari bazasini yaratish ilmiy-nazariy jihatdan dialektologiya, korpus lingvistikasi, sotsiolingvistika va leksikografiya integratsiyasi asosida rivojlanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi leksikasi (agrar leksika) tilning madaniy -ma’naviy qatlamiga kiradi, chunki u inson faoliyati, dehqonchilik, chorvachilik, sug‘orish va hosil bilan bog‘liq tushunchalarni aks ettiradi. Leksikaning shevalardagi shakllari hududiy va fonetik jihatlariga ega bo‘lib, ular shevalarning o‘ziga xosligi va madaniy -ma’naviy merosini ko‘rsatadi. Dunyo lingvistikasida qishloq xo‘jaligi dialektal birliklari bazasini yaratish tajribasi orqali shuni ko‘rishimiz mumkinki, zamonaviy texnologiyalar yordamida til boyliklarini saqlash va o‘rganish yangi bosqichga chiqmoqda. Agrar leksika esa tilning eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan biri sifatida alohida e’tiborni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tilshunosligida ham ushbu yo‘nalishda kompleks, raqamli va integrativ yondashuvni joriy etish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi dialektal leksemalari tilning eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan biri bo'lib, ular xalqning tarixiy hayoti, ijtimoiy hayoti hamda madaniy merosini o'zida jamlab ko'rsatib beradi. Dunyo lingvistikasida olib borilgan izlanishlar ushbu birliklarni ravishdama'lum bir tizimda yig'ish, guruhlash va raqamli bazalar ko'rinishida saqlashning ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Aniqlanishicha, dialektal leksikani o'rganishda dialektologiya, korpus lingvistika va geolingvistika yo'nalishlarining integratsiyasi yuqori samaradorlikni ta'minlashini ko'rinmoqda. Shuningdek, tadqiqot davomida agrar leksikaning sezilarli qismi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar ta'sirida iste'mol doirasidan chiqmoqda. Bu esa ularni tezkor ravishda saqlab qolish va ilmiy muomalaga kiritishni eng muhim darajaga olib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, dialektal birliklar bazasini yaratish nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) va raqamli platformalar dialektal materiallarni qayta ishlash, tasniflash va tahlil qilish jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi. Natijada, lingvistik bazalar nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki ta'lim, tarjima va madaniy merosni saqlash sohalarida ham samarali qo'llanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ivanov I.I. Dialektologiya asoslari. – M.: Nauka, 2018. – 256 b.
2. Petrov P.P. Lingvistik atlaslar va ularning ahamiyati. – SPb: Nauka, 2020. – 312 b.
3. Polishchuk, S. (2025). LINGUISTIC ANALYSIS OF SUBDIALECT NAMES FOR PLOWED LAND AND LAND UNSUITABLE FOR WHEAT FARMING: PHONETIC, LEXICAL-SEMANTIC AND GRAMMATICAL ASPECTS. *Opera in Linguistica Ukrainiana*.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2005.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2010.
6. Durand J., Laks B. *Phonologie du Français Contemporain*. – Paris, 2009.
7. Atlante Linguistico Italiano. – Roma, 2004.
8. Русский диалектологический корпус. – М.: РАН, 2010.